ISSN:3030-332X
Impact factor: 9,493
International journal of scientific researchers

ISROILNING YAQIN SHARQ MINTAQAVIY XAVFSIZLIK VA SIYOSATIDAGI O‘RNI: GEOPOLITIK DINAMIKA VA STRATEGIK MUVOZANAT

Ro’ziyeva Shaxina Shavkat qizi
wakhinaruziyeva@gmail.com
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti
Xalqaro Munosabatlar fakulteti
2-kurs talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.23858595

Annotatsiya

Ushbu maqolada Isroilning Yaqin Sharqdagi mavqei va strategik qadamlari uchta klassik nazariy qarash orqali tahlil qilinadi: Kennet Uoltsning tizimli realizmi, xavfsizlik dilemmasi mexanizmi va Aleksandr Vendtning konstruktivistik konsepsiyasi. Tadqiqotning asosiy nuqtasi shundaki — harbiy ustunlik avtomatik ravishda mutlaq xavfsizlikni kafolatlamaydi. Periferiya doktrinasidan to Begin doktrinasigacha bo‘l gan tarixiy tajriba, 2023–2026-yillardagi "Eron o‘qi" bilan to‘qnashuvlar, Ibrohimiy kelishuvlarning diplomatik qamrovi hamda suv-texnologiya diplomatiyasi qiyosiy-tarixiy metod bilan ko‘rib chiqiladi. Yakunda esa Yaqin Sharqning uchta ehtimoliy ssenariysi shakllantirilib, O‘zbekiston tashqi siyosati uchun tegishli amaliy xulosalar ilgari suriladi.

Kalit so‘zlar: Isroil, Yaqin Sharq, tizimli realizm, xavfsizlik dilemmasi, Ibrohimiy kelishuvlar, Eron, gidropolitika.

2026-yilning fevral oyi oxiriga kelib AQSh va Isroil Eronga qarshi keng ko‘lamli havo zarbalarini yo‘lga qo‘ydi. Kutilmagan zarbalar oqibatida Tehron rahbariyatining salmoqli qismi, jumladan Oliy rahbar Ali Xomanaiy ham halok bo‘ldi (Tejeda, 2026). Dastlabki strategik kitob bo‘yicha amaldagi rejim darhol inqirozga yuz tutib, qulashi kerak edi. Ammo unday bo‘lmadi. Tehron vaziyatni darhol o‘z qo‘liga olib, Hormuz bo‘g‘ozini neft-gaz tashuvchi kemalar uchun yopib qo‘ydi va Fors qo‘ltig‘idagi AQSh harbiy bazalariga hamda energetika obyektlariga qat’iy zarbalar berdi (Tejeda, 2026).

Mana shu epizodning o‘ziyoq mavzuning asl mohiyatini ochiqlab beradi. Isroil operativ-taktik jihatdan tengsiz ustunlikni namoyish etishi mumkin, biroq ushbu ustunlik uzoq muddatli va barqaror xavfsizlikka aylanmayapti. Shu sababli ham ushbu masalani o‘rganish favqulodda dolzarb.

Isroilning Yaqin Sharqdagi o‘rnini bitta so‘z bilan — masalan, "regionning yagona yadroviy kuchi" deya ko‘klarga ko‘tarish yoki aksincha, "bosqinchi davlat" deya bir tomonlama tamg‘alash akademik tahlildan yiroqdir. Bunday jo‘n yondashuvlar mavzuga kirishmasdan turib tahlilni yo‘qqa chiqaradi. Shaxsan menga har ikkala chegaralangan qarash ham yetarsizdek ko‘rindi.

Aslida Isroilning mintaqaviy strategiyasi uchta alohida mantiqning to‘qnashuvida shakllanadi: Uolts ta’riflagan kuchlar muvozanati (anarxik tizimdagi omon qolish intilishi); Jervis tadqiq etgan xavfsizlik dilemmasi (bir tarafning mudofaasi ikkinchisi uchun tahdid deb o‘qilishi); Vendt ko‘rsatib bergan identifikatsiya va ijtimoiy konstruksiya (aktorlarning bir-birini dushman yoki sherik deb qabul qilishi).

Ilgari surilayotgan gipotezam shundan iboratki: Isroil harbiy kuchini oshirgani sayin xavfsizlik dilemmasini chuqurlashtirib boradi; ayni paytda Ibrohimiy kelishuvlar kabi identifikatsion burilishlar bu dilemmani qisman yumshatadi, biroq ildizi bilan yo‘q qila olmaydi.

SIPRI (2026) ma’lumotlariga ko‘ra, Isroilning 2025-yildagi harbiy byudjeti 48,3 milliard dollarni tashkil etdi. Bu 2024-yilgiga qaraganda 4,9 foizga kamroq, ammo 2022-yilgi ko‘rsatkichdan qariyb ikki

baravar yuqori . YaIMga nisbatan olganda harbiy xarajatlar 7,8 foizga yetib, Isroilni dunyoda 3-o‘ringa olib chiqdi. Qolaversa, AQSh 2025-yilda ham Isroilga 3,8 milliard dollarlik harbiy yordam ajratishda davom etdi (SIPRI, 2026).

Ushbu raqamlar ikkita aniq xulosaga yetaklaydi:

- Isroil ichki balanslash (internal balancing) yo‘lini nihoyatda og‘ir va qimmat narxda amalga oshirmoqda;
- Vashington bilan harbiy-siyosiy ittifoq (tashqi balanslash) hamon ushbu tizimning ustuni bo‘lib qolmoqda.

Isroil Milliy xavfsizlik tadqiqotlari instituti (INSS, 2026) oktyabr oyidagi hisobotida 2023-yil 7-oktyabrgacha bo‘lgan davrga nisbatan Isroilning mintaqaviy harbiy pozitsiyasi, xususan Eronga nisbatan sezilarli darajada ustunlashganini qayd etadi. Men bu tahlilni butunlay inkor qilmayman, biroq ikkita muhim sharh qo‘shaman: bu — birinchidan, Isroil ichki tahlil markazining bahosi; ikkinchidan, harbiy jihatdan "mustahkamlangan pozitsiya" hali "barqaror xavfsizlik" degani emas.

Tehronning uzoq yillik regional strategiyasi marhum general Qosim Sulaymoniy nomi bilan bog‘liq modelga tayanar edi. Bu modelning mohiyati: Eron o‘z hududidan uzoqda — Livan, Suriya, Iroq, G‘azo va Yamanda nodavlat proksi-tashkilotlarni qurollantirish orqali tahdidlarni o‘z chegarasidan tashqarida ushlab turish edi (Tejeda, 2026). Siyosiy tilda bu tarmoq "Qarshilik o‘qi" deb nomlandi.

2023-yil 7-oktyabrda Hamas tomonidan amalga oshirilgan kutilmagan hujum ushbu tarmoqning eng tajovuzkor, ammo yakunda eng qimmatga tushgan amaliyoti bo‘ldi. Soufan Center ekspertlarining baholashicha, bu hujumning maqsadlaridan biri AQSh homiyligida shakllanayotgan Isroil–arab ittifoqini to‘xtatish edi (Tejeda, 2026). Ammo voqealar rivoji kutilganning aksini berdi: harakatga kelib, Hizbulloh yetakchisi Hasan Nasrullo va Hamas rahbari Yahyo Sinvarni yo‘q qildi. Damashqning yangi hukumati Eron va Rossiya harbiylarini mamlakatdan chiqarib yubordi.

Albatta, xolislik nuqtai nazaridan aytish lozimki, ushbu taktika va harbiy g‘alabalar Isroilga osonlik bilan kelgani yo‘q. Soufan Center ta’kidlaganidek, Isroilning G‘azo va Livandagi ketma-ket harakatlari "fuqarolarga jamoaviy jazo berish" sifatida qabul qilinib, dunyo bo‘ylab keskin noroziliklarga va hatto diplomatik-iqtisodiy sanksiyalarga sabab bo‘ldi; G‘azo hududining asosiy qismi xarobaga aylanib, o‘n minglab tinch aholi qurbon bo‘ldi (Tejeda, 2026). Harbiy g‘alaba bilan xalqaro legitimlik o‘rtasidagi bu ulkan uzilish Isroil uchun jiddiy muammoga aylandi.

2025-yil iyunida AQSh va Isroilning birgalikdagi havo operatsiyasi Eronning asosiy yadroviy inshootlariga jiddiy shikast yetkazdi. 2025-yil dekabr va 2026-yil yanvar oylarida Eronda boshlangan ommaviy noroziliklardan so‘ng Vashington va Quddus tashqi harbiy bosim rejimni Ag‘darib tashlaydi deb o‘yladi. Lekin faqat havo hujumlariga tayangan strategiya o‘zining chegarasiga yetib to‘xtadi. Eron rahbariyatining qolgan qismi tezda vaziyatni o‘z qo‘liga olib, Hormuz bo‘g‘ozini yopdi, Fors qo‘ltig‘idagi AQSh obyektlariga qat’iy javob zarbalari berdi (Tejeda, 2026). Hizbulloh esa sezilarli darajada zaiflashgan bo‘lishiga qaramay, 2026-yilda Eron manfaati uchun mojaroga qayta qo‘shildi (INSS, 2026). Yamandagi husiylar esa deyarli talofatsiz qolib, Bab-el-Mandeb bo‘g‘ozini yopish orqali Tehronning ikkinchi geosiyosiy dastagiga aylandi (Tejeda, 2026). Garchi AQSh Eron portlariga dengiz blokadasi joriy etgan bo‘lsa-da, 2026-yil aprel oyidan beri vaziyatni yumshatish va vositachilik kelishuviga erishish uchun muloqot izlamoqda; ammo aniq bitim tuzilgani yo‘q (Tejeda, 2026).

Al Jazeera (2026) ham xuddi shunday mantiqni ilgari suradi: Eronning proksi-tarmog‘iga og‘ir zarba berildi, lekin Tehron endi strategik bo‘g‘ozlar (Hormuz va Bab-el-Mandeb) orqali global iqtisodiyotga bosim o‘tkazmoqda. Shu bilan birga, AQShning mintaqadagi "xavfsizlik kafolatchisi" sifatidagi obro‘siga darz ketdi.

2012-yilda Kennet Uolts Foreign Affairs jurnalida shov-shuvli maqola e'lon qilgan edi. Uning asosiy argumenti shunday edi: Yaqin Sharqdagi beqarorlikning tub sababi — Isroilning yadroviy monopoliyasidir; anarxik tizim esa har doim muvozanatga intiladi, demak, yadroviy Erongina mintaqada haqiqiy barqarorlikni o'rnatadi (Waltz, 2012). Uolt esa bunga javoban Eronning yadro quroliga ega bo'lishi vaziyatni barbod qilishini yozgan edi (Walt, 2012); Robert Manning esa Sovuq urush davridagi tiyib turish mantig'ini Yaqin Sharq kabi murakkab regionga ko'chirish xato ekanini ko'rsatib berdi (Manning, 2012).

Mening fikrimcha, 2026-yilgi voqealar Uolts konsepsiyasini ham tasdiqladi, ham rad etiladi: chunki Isroilning bir tomonlama ustunligiga javoban Eron baribir simmetrik bo'lmagan yo'llar bilan muvozanat izladi; chunki bu muvozanat yadro bombasi orqali emas, balki dengiz bo'g'ozlarini yopish, arzon dron va raketalar zarbasi orqali tiklandi. Bu natija xavfsizlik dilemmasining klassik ko'rinishidir. Jervis (1978) ta'kidlaganidek, mudofaa va hujum vositalarining qanday baholanishi dilemmaning kuchini belgilaydi.

2020-yil 15-sentyabr kuni Vashingtonda Isroil va BAA o'rtasida "Ibrohimiy kelishuvlar" nomini olgan tarixiy hujjat imzolandi (United Nations, 2020). Shu kuniyoq Bahrayn ham deklaratsiyaga qo'shildi, keyinroq esa Marokash va Sudan jarayonga qo'shildi. 2025-yil 6-noyabrga kelib Qozog'iston ushbu kelishuvlarga qo'shilgan birinchi Markaziy Osiyo davlatiga aylandi (Caspian Policy Center, 2026). Diqqatga sazovor joyi shundaki, Qozog'iston Isroil bilan allaqachon to'liq diplomatik aloqalarga ega edi; shu sababli uning bu qadami ko'proq Vashingtonga yuborilgan diplomatik belgi sifatida baholandi (Caspian Policy Center, 2026).

Shartnomaning sarlavhasi ham mantiqiy ma'noga ega. Hujjatda "tinchlik", "diplomatik munosabatlar" va "to'liq normallashtirish" tushunchalari yonma-yon ishlatiladi (United Nations, 2020). Bu ilgari Misr hamda Iordaniya bilan tuzilgan va amalda "sovuq tinchlik"ka aylanib qolgan bitimlar tajribasidan chiqarilgan xulosa edi.

Keling, bu jarayonni nazariy jihatdan tahlil qilamiz:

Realistik Tushuntirish (Moddiy Manfaat):

[BAA / Bahrayn] ⟵ Umumiy tahdid: ERON Isroil bilan harbiy-taktik alyans

Konstruktivistik Tushuntirish (Identifikatsiya o'zgarishi):

Isroil obrazining o'zgarishi: "Arab ummatining dushmani" ,"Mintaqaviy texnologik va xavfsizlik sherigi"

Birinchi qarashda realizm hammasini izohlaydigandek: BAA va Bahrayn uchun asosiy tahdid Eron, demak, Isroil bilan yaqinlashish ziddiyatli emas. Lekin ilgari Isroil bilan hech qachon urushmagan bu monarxiyalar uchun "dushman" va "sherik" tushunchasi qanday qilib bunchalik keskin o'zgardi? Buni realizm bilan tushuntirib bo'lmaydi.

Aynan shu nuqtada Aleksandr Vendtning (1992, p. 395) "Anarxiya bu davlatlar nima kashf etsa shudir" degan tezisi ishga tushadi. Ibrohimiy kelishuvlar — identifikatsiyaning o'zgarishidir: Isroil arab dunyosi uchun "azaliy dushman" obrazidan "umumiy tahdidga qarshi texnologik sherik" maqomiga o'tkazildi. Falastin masalasi esa diplomatik aloqalar o'rnatishning sharti bo'lmay qoldi.

Biroq bu yangi identifikatsiya hali juda mo'rt. Soufan Center ta'kidlaganidek, 2023-yilgi 7-oktyabr voqealari Falastin muammosini va arab jamoatchiligining noroziligini qaytadan kun tartibiga olib chiqdi (Tejeda, 2026). Caspian Policy Center (2026) bahosiga ko'ra, G'azodagi urush Saudiya Arabistoni va Isroil o'rtasidagi normallashuv jarayonini mutlaqo to'xtatib qo'ydi. Shunga qaramay, BAA va Bahrayn kelishuvni bekor qilmadi. Soufan Center ushbu ikki davlat Isroil bilan yaqin aloqalarni saqlab qoladi, ammo boshqa Fors qo'ltig'i mamlakatlari ularning izidan bormaydi deb hisoblaydi (Tejeda, 2026).

Demak, moddiy manfaat (realizm) bilan ijtimoiy identifikatsiya (konstruktivizm) bu o'rinda bir-birini to'ldirmoqda: manfaat darvozani ochdi, identifikatsiya esa uni yopilib ketishdan saqlab turibdi, lekin bu qoida faqat sanoqli davlatlargagina tegishli.

2026-yilgi urush mintaqaviy ittifoqlar tizimiga yana bir o‘zgartirish kiritdi. Soufan Center ma’lumotiga ko‘ra, AQSh Eronni batamom mag‘lub eta olmagach, AQSh koalitsiyasi tarqab ketmadi-yu, lekin uning "xavfsizlik soyaboni"ga bo‘lgan ishonchiga putur yetdi. Masalan, Saudiya Arabistoni, Turkiya va Pokiston o‘rtasida 2026-yil avgustida tuzilgan "Makka mudofaa bitimi" amaliyotda sinovdan o‘tmadi: Yamandagi husiylar Bab-el-Mandebda harakat boshlaganida Anqara ham, Islomobod ham real chora ko‘rmadi (Tejeda, 2026). Bu Jervis ko‘rsatib o‘tgan holatga to‘liq mos keladi: xavfsizlik noaniq bo‘lgan muhitda aktorlar bir vaqtning o‘zida bir nechta qarama-qarshi kafolatlarga tayanishga intiladi (hedging).

Isroil uchun bu jarayon ikki tomonlama ta’sirga ega:

Fors qo‘ltig‘i davlatlarining Vashingtonga ishonchi so‘nsa, ular Isroil texnologiyalari va mudofaasiga ko‘proq muhtoj bo‘ladi;

Boshqa tarafdan, o‘sha davlatlar Tehronning "mintaqa xavfsizligini tashqi kuchlarsiz o‘zimiz hal qilaylik" degan takliflariga quloq tutishni boshlaydi (Tejeda, 2026).

Isroilning diplomatik kelajagi aynan ushbu ikki qarama-qarshi tendensiya o‘rtasidagi muvozanatga bog‘liq bo‘lib qoladi.

Bugungi kunda Isroil o‘z aholisi va sanoati iste’mol qiladigan ichimlik suvining taxminan 80 foizini O‘rta dengiz suvini chuchuklashtirish orqali olmoqda (Udasin, 2021). Qarang, atigi yigirma yil muqaddam suvsizlik Isroil uchun strategik tahdid edi; bugunga kelib esa u qudratli diplomatik dastakka aylandi.

Buning eng yaqqol misoli — "Farovonlik loyihasi" (Project Prosperity). 2021-yil noyabrida Dubay Expo ko‘rgazmasida Isroil, Iordaniya va BAA hamkorlik niyatini imzoladi: unga ko‘ra, Iordaniya BAA sarflagan sarmoya evaziga quyosh energiyasini ishlab chiqarib Isroilga beradi, Isroil esa buning evaziga Iordaniyaga yiliga 200 million kubometr chuchuk suv yetkazib beradi (Udasin, 2021; Al Jazeera, 2023).

Ammo ushbu texnologik loyiha siyosiy inqirozga dosh bera olmadi. G‘azodagi urush boshlanishi bilan Amman ko‘chalarida ommaviy noroziliklar to‘lqini ko‘tarildi. Natijada Iordaniya hukumati 2023-yil 16-noyabrda ushbu bitimni imzolamasligini ochiq e’lon qildi hamda o‘z qirg‘oqlarida 3,2 milliard dollarlik mustaqil suvsizlantirish majmuasini qurishni tezlashtirdi (Rahim, 2024). Tanqidchilar loyihada falastinliklarning suv resurslariga bo‘lgan huquqi umuman inobatga olinmaganini ta’kidlaydi (Rahim, 2024).

"Farovonlik Loyihasi" G‘azo Urushi / Xalq noroziligi Bitimning muzlatilishi (2023) Ushbu misol texnologik resurslarning siyosiy chegarasini ko‘rsatib berdi. Suv va energiya almashinuvi iqtisodiy jihatdan qanchalik manfaatli bo‘lmasin, agar hamkor davlat ichidagi jamoatchilik legitimligi buni ko‘tara olmasa, texnologiya avtomatik ravishda siyosiy kapitalga aylanmaydi. Konstruktivizm tili bilan aytganda — texnologik hamkorlik faqat jamiyatlar o‘rtasidagi identifikatsiya mos kelgan joydagina ishlaydi.

Kiberxavfsizlik sohasi ham Isroil uchun yana bir muhim "yumshoq kuch" dastagidir. Soliman (2021) ta’kidlashicha, BAA Isroilni kiber-makondagi yetakchi kuch va strategik sherik deb biladi. El-Masry (2021) ma’lumotlariga ko‘ra, Isroilning kiberxavfsizlik eksporti 2020-yilning o‘zidayoq 6,85 milliard dollarga yetgan edi. 2021-yilda Marokash va 2022-yilda Bahrayn bilan kiberxavfsizlik bo‘yicha rasmiy kelishuvlar imzolandi (Fatafta, 2023).

Biroq bu sohaning ham qorong‘i tomoni bor. Fatafta (2023) kiber-hamkorlik bahonasida kuzatuv va josuslik dasturlarini (Pegasus kabi) eksport qilish ko‘payganini, bu esa normallashuvning "nazorat va kuzatuv avtoritarizmi" degan nojo‘ya tomonini ochib berganini qayd etadi. Mening baholashimcha, bu holat Isroilning xalqaro obro‘siga putur yetkazmoqda: texnologik yaqinlashuv keng xalq massalari darajasida emas, faqat elitalar darajasida qolmoqda, shu sababli ham u juda mo‘rt.

Harbiy texnologiyalar haqida gap ketganda, Iron Dome (Temir gumbaz), David's Sling (Dovud tasmada) va Arrow raketaga qarshi tizimlari Isroil xavfsizligining qalqonidir. AQSh Kongressining

tadqiqot xizmati ma'lumotlariga ko'ra, bu tizimlar Amerika byudjeti bilan birgalikda moliyalashtiriladi: masalan, 2021-yilda ajratilgan 500 million dollarlik kooperativ mudofaa fondining 73 millioni Iron Domega, 177 millioni David's Slingga va qolgan qismi Arrow II/III loyihalariga yo'naltirilgan (Sharp, 2020).

Bu o'rinda nazariy jihatdan muhim bir savol tug'iladi: mudofaa texnologiyasi xavfsizlik dilemmasini yumshatadimi yoki kuchaytiradimi?

Jervis (1978) nazariyasiga ko'ra, agar mudofaa qurollari hujum qurollaridan ustun bo'lsa, dilemma zaiflashishi kerak. Biroq amaliyotda raketaga qarshi qalqon ikki tomonlama pichoqdir: Isroil uchun bu qalqon o'z fuqarolarini himoya qiladi, lekin shu bilan birga, dushmanga qarshi javob zarbasi berganida Isroilning o'zi ko'radigan ziyonni kamaytiradi. Ya'ni, Isroil uchun hujumkor operatsiyalarni o'tkazish "arzonlashadi". Dushmanlar esa bunga javoban qalqonni yorib o'tish uchun raketa va dronlar sonini keskin ko'paytiradi. Shu ma'noda Iron Domeni "sof mudofaa quroli" deb bo'lmaydi. Bu — mening shaxsiy tahliliy xulosam.

2026-yilgi to'qnashuvlar mudofaa texnologiyalariga bo'lgan talabni yanada oshirdi. Soufan Center hisobotiga ko'ra, Fors qo'ltig'i davlatlari endilikda o'zlarining energetika obyektlarini mustahkamlash hamda raketalarga qarshi zaxiralarni to'ldirish choralarini ko'rmoqda, hatto Ukraina urushida sinovdan o'tgan havo mudofaasi tajribalarini tatbiq etmoqda (Tejeda, 2026). Bu Isroil uchun ham yangi bozor, ham yangi raqobat muhitini yaratadi.

Ilgari surilgan gipotezaga qaytadigan bo'lsak: Isroilning moddiy va harbiy ustunligi uning strategik xavfsizligini avtomatik ravishda kafolatlay olmaydi. Tadqiqot davomida buni tasdiqlovchi uchta asosiy dalil olindi:

1. SIPRI ma'lumotlari ko'rsatganidek, Isroil ichki balanslashni o'ta og'ir moliyaviy-ijtimoiy narx evaziga amalga oshirmoqda hamda Vashington yordamiga bog'lanib qolgan;

2. "Eron o'qi"ning infratuzilmasi zaiflashtirilgan bo'lsa-da, Tehron bo'g'ozlarni yopish va asimmetrik usullar bilan harbiy muvozanatni tiklashga erishdi;

3. Ibrohimiy kelishuvlar identifikatsiyani o'zgartirish mumkinligini isbotlagan bo'lsa ham, bu jarayon elitalar darajasida qolib, keng jamiyatlarni qamrab olmadi.

Ushbu tahlillardan kelib chiqib, Yaqin Sharqning uchta ehtimoliy ssenariysini va O'zbekiston uchun amaliy tavsiyalarni shakllantirish mumkin:

Mintaqaning 3 ehtimoliy ssenariysi:

O'zbekiston va akademik hamjamiyat uchun amaliy tavsiyalar:

1. Ko'p vektorli tashqi siyosat va neytral pozitsiya: Qozog'istonning Ibrohimiy kelishuvlariga qo'shilishi ko'proq ko'p vektorli diplomatiya namunasidir (Caspian Policy Center, 2026). O'zbekiston o'zining an'anaviy neytrallik tamoyilini saqlagan holda, Isroil bilan suvni tejash, agrotexnologiyalar va kiberxavfsizlik yo'nalishlarida siyosiy majburiyatlarsiz pragmatik hamkorlikni o'rganishi mumkin. Lekin bunda "Farovonlik loyihasi" sabog'i — ya'ni jamiyatdagi kayfiyat va ichki legitimlik albatta inobatga olinishi shart (Rahim, 2024).

2. Nazariy sintez zarurati: Isroil–Eron qarama-qarshiligini faqat "realizm" yoki faqat "konstruktivizm" bilan tushuntirish xatodir. Kelgusi akademik tadqiqotlarda kuchlar muvozanati, xavfsizlik dilemmasi hamda ijtimoiy identifikatsiya omillarini birgalikda qo'llash maqsadga muvofiqdir.

3. Analitik ogohlantirish: Ushbu maqola 2026-yil oktyabr oxiridagi mavjud ma'lumotlar asosida tayyorlandi. Dinamika tez o'zgarayotgani sababli, shakllantirilgan xulosalarni yangi kirib keladigan faktlar bilan muntazam qayta ko'rib chiqish talab etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Al Jazeera. (2023, September 26). Israel advances water-for-energy deal with Jordan, UAE. https://www.aljazeera.com/news/2023/9/26/israel-advances-water-for-energy-deal-with-jordan-uae
2. Al Jazeera. (2026, October 8). How October 7 redrew the map of the Middle East. https://www.aljazeera.com/news/2026/10/8/how-october-7-redrew-the-map-of-the-middle-east
3. Caspian Policy Center. (2026, February). Kazakhstan joins the Abraham Accords: Strategic opportunities and risks. https://api.caspianpolicy.org/media/ckeditor_media/2026/02/23/_kazakhstan-joins-the-abraham-accords-strategic-opportunities-and-risks-1.pdf
4. El-Masry, A. (2021, June 9). The Abraham Accords and their cyber implications: How Iran is unifying the region’s cyberspace. Middle East Institute. https://www.mei.edu/publications/abraham-accords-and-their-cyber-implications-how-iran-unifying-regions-cyberspace
5. Fatafta, M. (2023, September 27). Normalizing the surveillance state: Cybersecurity cooperation and the Abraham Accords. Middle East Report, (307–308). MERIP. https://www.merip.org/2023/09/the-abraham-accords-cybersecurity/
6. Grist. (2023). Project Prosperity, Israel, war in Gaza, landmark Mideast climate deal. https://grist.org/international/project-prosperity-israel-war-gaza-landmark-mideast-climate-deal/
7. Hadar, L. T. (2010, June 29). The collapse of Israel’s “Periphery Doctrine”. Cato Institute. https://www.cato.org/commentary/collapse-israels-periphery-doctrine-popping-pipes-turkey-dreams
8. Institute for National Security Studies. (2026, October). Israel’s national security balance: October 2026 [Special publication]. INSS. https://www.inss.org.il/wp-content/uploads/2026/10/%D7%9E%D7%90%D7%96%D7%9F-%D7%94%D7%91%D7%99%D7%98%D7%97%D7%95%D7%9F-%D7%90%D7%A0%D7%92%D7%9C%D7%99%D7%AA.pdf
9. Jervis, R. (1978). Cooperation under the security dilemma. World Politics, 30(2), 167–214. https://doi.org/10.2307/2009958
10. Jewish News Syndicate (JNS). (2021, November 23). Landmark green energy exchange for water seen as a win-win for Israel, Arab partners. https://www.jns.org/landmark-green-energy-exchange-for-water-seen-as-a-win-win-for-israel-arab-partners/
11. L’Orient Today. (2023, November 14). “Water for electricity,” Israel and the UAE’s politicized project with Jordan. https://today.lorientlejour.com/article/1347777/water-for-electricity-israel-and-the-uaes-politicized-project-with-jordan.html
12. Manning, R. (2012, June 25). Why Iran shouldn’t get the bomb: The limits of IR theory. Atlantic Council. https://www.atlanticcouncil.org/blogs/new-atlanticist/why-iran-shouldnt-get-the-bomb-the-limits-of-ir-theory/
13. Rahim, H. (2024). Project Prosperity, Israel, war in Gaza, landmark Mideast climate deal. Grist.
14. Sharp, J. M. (2020, November 16). U.S. foreign aid to Israel (CRS Report RL33222). Congressional Research Service. https://www.crsreports.congress.gov/product/pdf/RL/RL33222
15. Soliman, M. (2021, May 11). How tech is cementing the UAE-Israel alliance. Middle East Institute. https://www.mei.edu/publications/how-tech-cementing-uae-israel-alliance
16. Stockholm International Peace Research Institute. (2026, April). Trends in world military expenditure, 2025 (SIPRI Fact Sheet). https://www.sipri.org/publications/2026/sipri-fact-sheets/trends-world-military-expenditure-2025
17. Tejeda, G. (2026, October 5). The region still in crisis three years after the October 7 attack (IntelBrief). The Soufan Center. https://thesoufancenter.org/intelbrief-2026-october-5/

18. The Hill. (2021, November 22). Israel, Jordan, UAE sign pivotal deal to swap solar energy, desalinated water. https://thehill.com/policy/energy-environment/582750-israel-jordan-uae-sign-pivotal-deal-to-swap-solar-energy/
19. United Nations. (2020, September 15). Abraham Accords peace agreement: Treaty of peace, diplomatic relations and full normalization between the United Arab Emirates and the State of Israel (UNTS No. 56565). UN Treaty Series. https://treaties.un.org/doc/Publication/UNTS/No%20Volume/56565/Part/I-56565-08000002805a7d1f.pdf
20. United Nations Security Council. (1981, June 19). Resolution 487 (1981). UN Digital Library. https://digitallibrary.un.org/record/25055
21. Udasin, S. (2021). Desalination and water diplomacy in Israel. JNS.
22. Walt, S. M. (2012, June 26). Should we give Iran the bomb? Foreign Policy. https://foreignpolicy.com/2012/06/26/should-we-give-iran-the-bomb/
23. Waltz, K. N. (2012). Why Iran should get the bomb: Nuclear balancing would mean stability. Foreign Affairs, 91(4), 2–5. https://www.foreignaffairs.com/articles/iran/2012-06-15/why-iran-should-get-bomb
24. Wendt, A. (1992). Anarchy is what states make of it: The social construction of power politics. International Organization, 46(2), 391–425. https://doi.org/10.1017/S0020818300027764